



**PROFESSIONAL SPORT SOHASIDA SPORTCHILARNI
VAQTINCHALIK IJARAGA OLISH KONTRAKTINI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHDA FUQAROLIK-HUQUQIY ELEMENTLARNI AJRATISH
MUAMMOLARI**

Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
Gmail: Qurvonaliyevich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional sport sohasida sportchilarni vaqtincha boshqa klubga o'tkazish (transfer) munosabatlarining huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Fuqarolik va mehnat huquqi o'rtasidagi chegaralar, ijaraning klassik modeli inson mehnatiga tatbiq etilganda paydo bo'ladigan nazariy muammolar hamda "gibrid shartnoma" sifatida transfer kontraktining fuqarolik-huquqiy elementlari yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 503-moddasi va Fuqarolik kodeksining 535-moddasi o'rtasidagi bog'liqlik asosida sportchi faoliyatidan foydalanish huquqining fuqarolik-huquqiy mohiyati izohlanadi.

Kalit so'zlar: sportchi, vaqtinchalik ijara, transfer, fuqarolik-huquqiy elementlar, mehnat shartnomasi.

Professional sport faoliyati fuqarolik muomalasining o'ziga xos sohasi sifatida shakllanib, sportchi shaxsining mehnat qobiliyatini iqtisodiy muomalaga kiritish imkonini yaratgan. Shu bilan birga, sportchining vaqtinchalik boshqa klubga o'tkazilishi (transferi) institutini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasida bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjud. Bu muammolar, birinchi navbatda, ijara shartnomasining klassik modelini inson faoliyatiga tatbiq etishning murakkabligi va sportchining shaxsiy huquqiy maqomini muomala obyekti sifatida ko'rishdagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga muvofiq, fuqaroning huquq va layoqatlari cheklanmaydi, ya'ni shaxs o'z mehnatini to'liq begonalashtira olmaydi. Shu sababli, inson mehnati mulk obyekti sifatida ko'rilmaydi. Bu jihatdan sportchining "ijarasi" fuqarolik-huquqiy nazariyada to'liq ijara modeli emas, balki noto'liq (modifikatsiyalashgan) ijara shakli sifatida baholanadi. Fuqarolik kodeksining 535-moddasida ijaraning mohiyati mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun topshirish sifatida belgilanadi. Sportchining faoliyati esa shaxsga bog'liq bo'lgani sababli, bu modelni to'liq tatbiq etish imkoni mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 503-moddasiga ko'ra, agar ish beruvchi sportchining musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlay olmasa, sportchi o'z roziligi bilan bir yildan oshmagan muddatga boshqa ish beruvchiga o'tishi mumkin. Bu norma sportchining mehnat faoliyatini saqlagan holda, uni boshqa klubga vaqtincha o'tkazish imkonini beradi.



Shu bilan birga, klublar o'rtasida tuziladigan transfer shartnomasi fuqarolik-huquqiy xususiyat kasb etadi. Shu jihatdan, transfer kontrakti mehnat munosabatlarini saqlagan holda, klublar o'rtasida fuqarolik-huquqiy bitim sifatida tuziladi.

O'zbekistonlik olim M.S. To'laganova bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Shaxsiy mehnat faoliyatini ijaraga o'tkazish mumkin emas, biroq mehnat natijasidan foydalanish huquqi ma'lum shartlarda iqtisodiy jihatdan haq evaziga berilishi mumkin." Demak, bu yerda asosiy ob'ekt sportchining o'zi emas, balki uning faoliyatidan foydalanish huquqi hisoblanadi. Rossiyalik olim B.A. Karajelyaskov ta'kidlaganidek, "Transfer kontrakti mulkni emas, inson faoliyatini vaqtincha o'tkazadi. Shu sababli, u fuqarolik-huquqiy ijara konstruktsiyasining o'ziga xos gibrid shaklidir." Shartnoma shaklan fuqarolik-huquqiy bitim bo'lsa-da, mazmunan mehnat munosabatlari bilan chirmashib ketadi. Shu sababli, uni "gibrid shartnoma" deb atash mumkin. Fuqarolik-huquqiy jihatdan asosiy muammo shartnoma subyektlari o'rtasidagi "mulkdor" va "ijaraga oluvchi" tushunchalarining sport sohasiga tatbiqida aniqlik yo'qligi. Amalda, klub sportchining mehnat faoliyati ustidan nazoratga ega bo'lib, uni vaqtincha boshqa klubga taqdim etadi. Bu holatda sportchi iqtisodiy jihatdan "xizmat ko'rsatuvchi vosita" sifatida namoyon bo'ladi, bu esa fuqarolik huquqining asosiy tamoyillariga zid keladi. Sportchining vaqtinchalik transferi institutini fuqarolik-huquqiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu bitim an'anaviy ijara shartnomasining barcha belgilariga ega emas. Uning obyekti sifatida sportchining shaxsiy mehnati emas, balki faoliyatidan vaqtincha foydalanish huquqi ko'riladi. Shu sababli, bu institutni normativ darajada "xizmatni vaqtincha o'tkazish" shartnomasi sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bu esa fuqarolik va mehnat huquqi o'rtasida institutsional uyg'unlikni ta'minlaydi hamda sportchi huquqlarining kafolatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Тулаганова М.С. Шaxсий меxнат фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш муаммолари. – Тошкент, 2020.
4. Каражелясков Б.А. Правовая природа трансферных контрактов на примере Российской футбольной премьер-лиги. // Журнал российского права. – 2022.
5. Islomov Z. Fuqarolik-huquqiy shartnomalarning tarmoqlararo xususiyatlari. – Toshkent: TDYuU, 2019.
6. FIFA Regulations on the Status and Transfer of Players, 2023 edition.
7. Tursunova N. Sport huquqining mehnat va fuqarolik huquqi bilan o'zaro aloqasi. – Toshkent: TDYuU, 2022.